



KANONIK MODELLI NUTQIY HOSILALARNING FARQLI JIHLARI

Bobokalonov Po'lotshoh Ramazonovich

BuxDU fransuz filologiyasi kafedrasida o'aituvchisi

Samiyeva Dilsoda Qo'ldosh qizi

BuxDU iqtidorli talabasi

Annotatsiya: mazkur ilmiy maqolada qiyoslanayotgan fransuz va o'zbek tillarida g'ayrioddiy va o'ziga xos so'z-gaplarning farqli jihatlari olib borilgan ilmiy tadqiqot asosida tahlilga tortilgan. Unda system-struktur sintaksis masalalari haqida ma'lumot berilgan.

Tayanch so'zlar: so'z-gap, formal-funksional tahlil, semantik-funksional shakllangan gap, kanonik model, lingvomadaniy, pragmatik, neyrolingvistik, lingvodidaktik nuqtai nazar.

Jahon tilshunosligida gap sintaksisi formal va formal-funksional yo'nalishda turlicha talqin etiladi. V. A. Admoni nazariy qarashlarida mantiqiy hodisa bilan grammatik hodisa qorishiq diffuz holda o'rganilgan. G'arb tilshunosligida gap ikki tarkibli «S←P» ("Ega←kesim") dan iborat subyektning hokimligi, predikatning subyektga tobeligi bilan izohlangan. O'zbek tili sintaksisida sodda va qo'shma gapning minimal qurilish qolipi (qisq. GMqK) kesimlik kategoriyasiga muvofiq kesimlik kategoriyasi asosida o'rganilgan. Bu muammolar H.G'. Ne'matov, A. Nurmonov, I. Qo'chqortoyev, R. Sayfullayeva, M. Abuzalova, Sh. Akramov, M. Boshmonov, Z. Eraliyeva, B. Mengliyev, R. Bobokalonov, L. Raupova va boshqalarning ishlaridan ma'lum [2 ;3]. Ularda:

a) grammatik (morfologik) shakllangan gaplar [qisq. GShG] [WPm] va

b) semantik-funksional shakllangan gaplar [qisq.SFShSG], ya'ni morfologik shakllanmagan yoki kesimlik ko'rsatgichlarini qabul qilmaydigan [WP] qurilishli gaplar ziddiyatga qo'yib o'rganilgan. Mazkur tadqiqotda [SFShSG] bilan fransuz tilidagi atipik (kanonik) gaplarni qiyoslab o'rganish va substansial (formal-funksional) tadqiq qilish nazarga tutilgan.

Fransuz va o'zbek sistem tilshunosligida sodda gap va so'z-gaplar qurilishi talqini umumlashtirilgan holda kanonik modeli nutqiy hosila (KMNH) tizimi asosida o'rganildi va lingvomadaniy, pragmatik, neyrolingvistik, lingvodidaktik nuqtai nazardan integratsiya qilindi.

O'zbek tilida semantik-funksional shakllangan gaplar va fransuz tilida kanonik modeli nutqiy hosila [qisq. KMNH]larni o'zaro farqlash, tarqoq oraliq uchinchi nazariy masalalarni kanonik modeli gaplar ostida o'rganish natijasida kesimlilikning implisit ko'rinishi hisobga olindi, ya'ni: 1. Grammatik shakllangan gaplardan 2. Semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar "oraliq uchinchi" nazariyasi asosida ziddiyatda tahlil qilindi. Akademik B.M.Kedrovning "oraliq uchinchi" nazariyasi o'zbek tilida professor H.G'. Nigmatov tomonidan kiritilgan edi va shuning zaminida leksik-sintaktik tizimda uchinchi oraliq qiyosiy tahlil qilindi.

Gap sintaksisi tahlilida barcha tillarda "oraliq uchinchi" hodisalari undalma, kirish so'z, kiritma gaplarda bir xil uchraydi: 1. *Opa! Sen ham odam bo'ldingmi?* 2. *Bola qichqirdi: «Dada!»* 3. *Aziz do'stim, omonmisan, bormisan.* kabi sodda gap tarkidagi undalmalar, kirish so'z va kiritmalar qurshovi aniqlandi [3 ;4].



Ferdinand de Sossyur ta'limotida til tizimi, lison//nutq qurilishi va diskurs tushunchasi o'rganilgan [5]. Sharl Balli o'zining "Umumiy tilshunoslik va fransuz tilshunosligi" ilmiy asarida "modallik" atamasiga alohida urg'u berib o'tganligi. Sharl Bruno "hukm muddatlari" atamasi ostida modallikning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi ("Précis de grammaire historique de la langue française") kitobi, Gustav Giyyom "Zamon va fe'l" (Temps et verbe, 1929) ilmiy asarlar mavjud.

Dialektik kategoriyalar o'lchamida turgan « mohiyat va hodisa, mazmun va shakl, sabab va oqibat, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik, umumiylik va xususiylik, shuningdek, butun/bo'lak, struktura/element ziddiyati » asosida aniqlashtirildi. Ma'lumki, o'zbek sintaksisida so'z-gaplar quyidagi belgilari nazarga tutilgan:

1. So'zning g'ayrioddiy lug'aviy ma'nosi asosida gap mavqeiga kelishi;
2. So'zning funktsional jihatdan o'zi sintaktik vazifa bajara olishi.

Aynan shu belgilarni fransuz tilida kanonik modeli gaplarda uchratish mumkin. Jan-Mari Essonno, Herve-D. Bechade, Luis Helmslevlarning ilmiy-nazariy qarashlariga murojaat qilinganda shularni uchratdik. Kanonik "Canon" («**canonique**», latincha **canonicus**, grec: **kanonikos**) terminining etimologiyasiga e'tibor berganda, bu termin dastlab italiyan badiiy san'atiga, so'ngra falsafa, mantiq, fizika va matematika fanlarida ishlatilgan. Kanonik modeli gaplarning pragmatik xususiyatlari, ob'ektiv va substantsional qiymati haqida Jan-Mari Esonno fikr yuritgan. Andre Martinening funktsional tahlil nazariyasida «**monema**» tushunchasi kirish so'z, kirish birikmalar, payt ravishlarini qamrab olgani ma'lum bo'ldi. Shuning bilan birga, Lyus'en Tenyerning aktant nazariyasi, Zolotovanning "sintaktik shakl", Muxinning "**sintaksema**" ta'riflari ham o'rganildi. Tenyer "**stemma**"si bilan qiyoslab ko'rildi. Uning aktant nazariyasidan sintantik model konstruktsiyasi sifatida foydalanildi. Ma'lumki, Tenyer daraxt diagrammasida 1-darajali, 2-darajali, 3-darajali aktantlarni ajratgan va aktantlar nazariyasi orqali grammatikani mantiqiy qolipdan chiqargan edi. Fransuz tilida [KMNH] lar leksik-semantik turlarini alohida tizim sifatida o'rganishga olib kelgan deyish mumkin.

Uchinchi bobda qiyoslanayotgan tillarda [KMNH]larning sintaktik konstruktsiyalari va lingvodidaktik xususiyatlari tahlil qilingan. Chunoschi:

KMNHlarning interkulturalogik, lingvopsixologik, neyrolingvistik va lingvodidaktik xususiyatlarini tolerant so'zlarning semantik zanjirida uchratdik. Fransuz tilida tollerant leksik maydoni:

1. **Modal so'zlar**: Merveilleux! Super! Fantastique! Sans doute ! Peut-être ! Excellent ! ...
2. **Undovlar** - interjections: Adieu, Ah, Allô, Assez etc.;
3. **Taklif-xitoblar** - exclamatifs et onomatopées : quoi? kss, drr, bzz, frrt;
4. **Tasdiq-inkor so'zlar** - négatifs et positifs: non, non plus, oui, s'est ça.

[KMNH]lar har ikki tilda leksik-semantik jihatdan darajalanadi:

1. Qoyil qolishda: Bravo – Ofarin. Balli. Yashang. Bay-bay.
2. Ajablanish, hayratlanishda: Oh la-la! - Tavba. Yo tovba. Voy sho'rim!
3. Mamnunlik, olqish, quvonchda: Très gentille – Ajoyib. Buhad go'zal. Gap yo'q. Barakallo. Balli. Balli shavoz ...
4. Norozilik; achinishda; Non, c'est impossible – Tavba deng. Oxiri baxayr bo'lsin. Shaytonga



hay bering!

5. Minnatdorlik, rozilik, avf so‘rashda: Merci. Pardon - Rahmat. Uzr. Avf eting. Minnatdorman. Rozi bo‘ling. Alloh rozi bo‘lsin. Baraka toping.

6. Ayblash, qag'rg'ashda: Merde. Salot. Tant fou. - Ablah, padarla'nat. Iblis.

7. Olqish, undashda: Admirable! Formidable! – Barakallo. Yashavoring. Baraka toping!

8. Ma'qullash, tasdiqlashda: D'accord. Si-si – Bo'pti. Ha-ha. Juda to'g'ri. Gap yo'q.

9. Undash, chaqirishda: Urta. En avant– Urta. Olg'a kabi so'z-gaplar keladi.

1. Mustaqil qo'llanadigan undovlar, fransuz tilida: *Attention! Doucement ! En avant ! Eh ! Malheur ! Sapristi ! Marche ! Silence ! Stop ! Allô ! Salut ! Bonsoir ! Adieu ! Pardon !* va h-zo leksemalar juda cheksiz.

2. Fransuzcha tili undovlari tarkibida quyidagi tasdiq-inkor ma'noli [KMNH] lar uchraydi: *Jamais ! Non ! Bon ! Bien ! En bien ! Ah ça ! Assez ! Tant pis ! Ni d'autres.*

3. Undovlar tarkibida berilgan quyidagi so'zlar taklif-xitob [KMNH] larga xosdir: *Tenez ! Encore ! Vas-y ! A la bonne heure ! Voilà !*

4. Undovlar tarkibida berilgan quyidagi so'zlar esa modal [KMNH] larga xosdir: *Merci ! Admirable ! Enfin ! Par exemple ! Chameau ! Minc! Dommage!*

O'zbek tilida: *Dod → Voy dod → E voy dod → Zolimlarning dastidan dod → Ey falak, bu zolimlarning dastidan dod!*

Fransuz tiliga xos binar shaklli nutqiy hosilani qiyoslaymiz.

Binar qurilishli hosila Me'yoriy qurilishi hosila

1. *Chaude, cette maronne !* 1. *Cette maronne est chaude*

2. *Magnifique, ce paysage!* 2. *Ce paysage est magnifique.*

3. *Génial, ce film!* 3. *Ce film est génial.*

Binar nutqiy hosilalar:

1. *La tulipe, je l'adore*–ikki tarkibli yoyiq gapning ikkinchi komponenti

2. *La tulipe, incroyable!* –binar gap, emplitis, ohang, jest, mimika, pauza, tana harakati, hayajon.

Fransuz tilida: *Agréabvle. → Il est agréabvle. Il était agréabvle.*

O'zbek tilida: *Ajoyib → Ajoyibdir. Ajoyib edi.*

3. *Comment va ta femme? – Très bien, excellente.* - kommunikativ diskursda. *Ta femme va très bien, elle est excellente.* - Mukammal shakli:

Et ta fille? Ça va? – Ça va. Formidable! - kommunikativ diskursda.

Prezantativ gaplarning ekspressiv buyoqdor o'ziga xos xususiyatlari:

Voici. Et voici. Mais voici. Voilà. Et voilà. Mais voilà

1. *Il y a quelqu'un? – Voilà, voilà... . On vient.*

Biror jonzod bormi? – Ana, hozir... . Borayapman.

2. *L'adition, s'il vous plait! – Voilà, voilà.*



Hisob-kitob qiling, iltimos! – Mana, hozir.

Shuningdek, “tolerantlik” semantik maydoni zanjirida:

- 1) liberté, autonomie, indépendance, indéterminisme, droit, choix ...;
- 2) indulgence, bienveillance, bonté, clémence, compréhension;
- 3) compréhension, entendement, intelligence;
- 4) acceptation, accord, acquiescement, autorisation kabilar.

Xulosa qilib aytganga, [KMNH]larning lingvistik, qiyosiy-tipologik va sotsiolingvistik xususiyatlarida kognolingvistik, lingvopsixologik, neyrolingvistik, lingvodidaktik, lingvokulturalogik bog'liqlik mavjud. Lisoniy tizimda so'z-gaplarning geterogen xususiyatlari fransuz va o'zbek tillarida farqli ravishda uchraydi. Fransuz tilida ayrim KMNH zamon paradigmasiga ega va ular tipik gap hisoblanmaydi. KMNHlar har ikki tilda kommunikativ nutq va diskurs-muloqotda juda faol uchraydi. Fransuz tilida binar konstruktsiya va binar oppozitsiya mohiyatan o'zbek tili nutqiy hosilalaridan farqli ajralib turadi.

Prezantativ gaplar o'zbek tilida undovlar tarkibida ko'p uchraydi. Bunda har ikki tilda personallik munosati juda kuchli ekanligi seziladi. Fransuz va o'zbek tilida [KMNH]lar kommunikativ, madaniy, lingvodidaktik aspektida shaxslararo diplomatik muzokara va kommunikativ murosa vosita manbai bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfullayeva R.R., Bobokalonov R.R. Neyropsixolingvistika: lingvistik shaxs va xarizmalı inson. Globedit, Kshinyov, 2023
2. Бобокалонов Р.Р. Нуткий ҳосила, семиотик белги, дискурс ва нейropsixolingvistik ҳолат. Монография, GlobeEdit, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023. 234 с. ISBN 978-620-0-64729-0.
3. Бобокалонов Р.Р. Нейropsixolingvистика: языковая личность и харизматический человек (Теория, практика и методика). Монография, LAMBERT Academic Publishing, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023. 230 с. ISBN 978-620-6-15214-9
4. Бобокалонов Р.Р. Неразрывная связь семиотики и нейropsixolingvистики. Монография, Lambert Academic Publishing, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023. 156 с. ISBN: 978-620-6-16018-2.
5. Соссюр Ф. де. Заметки по общей лингвистике. — М.: Прогресс, 1990; 2001